Scottish International Conference on

Multidisciplinary research and Innovation (SICMRI 2026)

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI PEDAGOGIK VAZIYATLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Aminova Nasiba Davlatboy qizi
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti tayanch doktoranti
Email: aminovanasiba396@gmail.com
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23273944

Annotatsiya: Tezisda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida emotsional intellektni pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish orqali rivojlantirish masalasi yoritilgan. Vaziyatlarni tanlash manbasi, tahlil bosqichlari, vaziyatlarning murakkablashib borishi va guruhda ishlash tartibi tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: emotsional intellekt, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, pedagogik vaziyat, vaziyat tahlili, keys, rolli o‘yin, pedagogik amaliyot.

Kirish

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining emotsional intellekti darsdagi aniq voqealarda namoyon bo‘ladi. O‘quvchi doskada xato qilib kulgiga qolganda yoki ota-ona bahodan noroziligini keskin ohangda bildirganda o‘qituvchi o‘z hayajonini jilovlashi va qarshisidagi odamning holatini tushunishi kerak. Bu ko‘nikma asosan real vaziyatda mashq qilish orqali shakllanadi. D.Kolb ta’rificha, o‘rganish aniq tajribadan boshlanadi va uni kuzatish, umumlashtirish hamda yangi sharoitda sinab ko‘rish orqali davom etadi [1].

Xorijiy tajribada ham bo‘lajak o‘qituvchilar bilan ishlashda amaliy vaziyatlarga tayaniladi. R.Gilar-Korbi va hamkasblari emotsional intellektni rivojlantirish mashqlarini o‘quv kursining amaliy qismi bilan bog‘lab o‘tkazgan [2]. G.Monroy Korrea va A.Mansanal Martines sharhida esa bo‘lajak o‘qituvchilar uchun tuzilgan dasturlarning ko‘pchiligi guruhda hamkorlikda ishlashga, tajribani tahlil qilishga va refleksiyaga asoslangani ko‘rsatilgan [3]. Pedagogik vaziyatlar bilan ishlash usuli o‘rganilgan bo‘lsa-da, uni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik amaliyoti bilan bog‘lash yanada takomillashtirishni taqozo qiladi. Tezisning maqsadi pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish orqali emotsional intellektni rivojlantirishning tashkiliy va metodik jihatlarini yoritishdan iborat.

Asosiy qism

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan modelda pedagogik vaziyatlar asosan talabaning o‘z amaliyotidan olinadi. Talaba har hafta ikki kunni maktabda o‘tkazadi va shundan keyin "Pedagogik mahorat" fanidan 80 daqiqalik mashg‘ulotga keladi. Mashg‘ulot boshida talabalar shu hafta sinfda kuzatgan voqealarini gapirib beradi va guruh ulardan mavzuga mosini tanlaydi. Mos voqea bo‘lmasa, oldindan tayyorlangan vaziyat kartochkasidan zaxira sifatida foydalaniladi.

Har bir vaziyat bir xil tartibda tahlil qilinadi. Avval voqea tavsiflanadi: nima bo‘ldi va unda kimlar ishtirok etdi. So‘ng o‘qituvchi va o‘quvchining shu paytdagi his-tuyg‘usi aniqlanadi. Keyingi bosqichda boshqa ishtirokchilar, masalan, sinfdoshlar yoki ota-onaning nuqtai nazari tushuniladi. Shundan keyin bir necha javob varianti taklif etiladi va ularning oqibati muhokama qilinadi. Oxirida talaba tanlangan yechimga refleksiya qiladi, ya’ni o‘zi bunday holatda qanday yo‘l tutganini va keyingi safar nimani o‘zgartirishini yozadi. M.Brekett taklif etgan "meta-moment" usuli ham shunga xizmat qiladi. Unga

© 2026Scottish International Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

ko‘ra, o‘qituvchi o‘zida hissiy o‘zgarishni sezgach, to‘xtab nafas oladi, o‘zining eng yaxshi holatini ko‘z oldiga keltiradi va shundan keyingina javob yo‘lini tanlaydi [4].

Vaziyatlar mashg‘ulotlar davomida asta-sekin murakkablashib boradi. Birinchi siklda, ya’ni uchinchi mashg‘ulotda ota-ona bilan muloqotga oid bitta vaziyat tahlil qilinadi va talaba o‘z javobini asoslaydi. Ikkinchi siklning beshinchi mashg‘ulotida talaba bir vaqtning o‘zida ikki talabga javob berishi kerak bo‘lgan vaziyatni, ya’ni hissiy holati buzilgan bola va vaqt tanqisligini ko‘rib, uchta javob yo‘lini solishtiradi. Yettinchi mashg‘ulotda uchta murakkab vaziyat keys tahlili orqali bosqichma-bosqich yechiladi. Uchinchi siklning to‘qqizinchi mashg‘ulotida ziddiyatli ota-ona bilan suhbat rolli o‘yin shaklida ijro etiladi. Bu yerda talaba o‘z holatini boshqarishi, suhbatdoshning kayfiyatini tushunishi va kasbiy ohangni saqlashi kerak bo‘ladi.

Vaziyat tahlili kichik guruhlarda tashkil etiladi. Guruhda 25–28 nafar talaba bo‘lgani uchun vaziyat 5–6 kishilik jamoalarda muhokama qilinadi, so‘ngra har bir jamoa o‘z yechimini butun guruhga taqdim etadi. Mashg‘ulot olib boruvchi yechimni o‘zi aytmaydi, balki savollar bilan talabalarni xulosaga olib boradi. Mashg‘ulot oxirida talaba vaziyatdan chiqargan xulosasini refleksiv jurnalga yozadi va uni keyingi haftadagi amaliyotda sinab ko‘radi. Natijani baholash uchun tuzilgan so‘rovnomada ham xuddi shunday beshta sinf vaziyati berilgan. Bu o‘qitish va baholash usullarining mosligini oshiradi.

Xulosa

Pedagogik vaziyatlar bilan ishlash talabaga amaliyotda ko‘rgan voqeani tahlil qilib, keyingi haftada sinfda sinab ko‘rish imkonini beradi. Vaziyatlarning bitta talabli holatdan rolli o‘yingacha murakkablashib borishi emotsional intellektning bosqichma-bosqich rivojlanishiga mos keladi. Tahlilning barqaror tartibi talabada o‘ylangan pedagogik qaror qabul qilish odatini shakllantirishga yordam berishi mumkin. Usulning samaradorligi tajriba-sinov ishida tekshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kolb D.A. Experiential learning: Experience as the source of learning and development. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984.
2. Gilar-Corbi R., Pozo-Rico T., Pertegal-Felices M.L., Sanchez B. Emotional intelligence training intervention among trainee teachers: a quasi-experimental study // Psicologia: Reflexão e Crítica. – 2018. – Vol. 31, № 1. – Article 33. – https://doi.org/10.1186/s41155-018-0112-1
3. Monroy Correa G.M., Manzanal Martínez A.I. Intervention programmes on socio-emotional competencies in pre-service teachers: A systematic review // Education Sciences. – 2025. – Vol. 15, № 12. – Article 1588. – https://doi.org/10.3390/educsci15121588
4. Brackett M. Permission to feel: Unlocking the power of emotions to help our kids, ourselves, and our society thrive. – New York: Celadon Books, 2019.

© 2026Scottish International Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.